“XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIIY LOYIHALASH” FANI MOBIL ILOVASINI ISHLAB CHIQISH ZARURATI

Axadova Malika Baxromovna
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti
malikaakhadova17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT), mobil ilovalar, mobil ilovalarni ishlab chiqish bosqichlari va ularni ishlab chiqarishdan maqsad haqida ma’lumotlar yoritilgan, shu bilan birga, texnologik ta’limdagi mutaxassislik fanlaridan biri “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanini talabalarga o‘qitishda mobil ilovalardan foydalanishning ahamiyati va zarurati to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, mobil ilova, smartfon, oliy ta’lim, texnologik ta’lim, mutaxassislik fanlari, innovatsiya, hunarmandlar, xalq hunarmandchiligi, badiiy loyihalash.

Аннотация: В данной статье представлена информация о современных информационно-коммуникационных технологиях (ИКТ), мобильных приложениях, этапах разработки мобильных приложений и целях их производства, в то же время высказываются мнения о важности и необходимости использования мобильных приложений в обучении студентов одному из профильных предметов технологического образования «Народные промыслы и художественный дизайн».

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, мобильное приложение, смартфон, высшее образование, технологическое образование, профильные науки, инновация, мастера, народные промыслы, художественный дизайн.

Abstract: This article covers information about modern information and communication technologies (ICT), mobile applications, the stages of mobile application development and the purpose of their production, at the same time, opinions are expressed about the importance and necessity of using mobile applications in teaching students one of the specialized subjects of technological education, "Folk Crafts and Artistic Design".

Key words: information and communication technologies, mobile application, smartphone, higher education, technological education, specialized sciences, innovation, craftsmen, folk crafts, quality of education.

KIRISH

Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kirib kelib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o‘tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta‘lim olishdagi vazifalarimizni

ISSN 3030-3907

yengillashtiramiz. shu bilan birga, ta`lim sohasida ham dasturiy vositalar, AKT va mobil ilovalardan foydalanish talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, vaqtlarini tejaydi, bilimlarni chuqurlashtirish va darslik doirasidan tashqariga chiqish imkonini beradi. Bularning barchasi o`quvchi va talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash muammosini hal qilishga yordam beradi.

Hozirgi kunda, kundalik hayotimizning aksariyat qismi zamonaviy elektronika, texnika va texnologiyalar bilan bog‘lanib borayotgan bir paytda, ta’lim sohasida ham AKT va mobil ilovalardan foydalanishning kengayib borayotganligi mamlakatimiz rivojining belgisi hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida asosiy fanlarni o‘qitishda mobil ilovalardan foydalanish dolzarb bo‘lmoqda.

Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hunarmandchilik sohasida ham innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, mobil ilovalar ushbu sohaga yangi nafas olib kirib, hunarmandlar va mijozlar o‘rtasidagi aloqalarni osonlashtirish, mahsulotlarni targ‘ib qilish va sotishni avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanining o‘qitilish jarayonida mobil ilova ishlab chiqish zarurati dolzarb masala bo‘lib, bu nafaqat ta’lim jarayonini innovatsion usullar bilan boyitadi, balki hunarmandchilik mahsulotlarini global bozorga olib chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Ushbu maqolada ushbu zaruriyatning sabablari, mobil ilovaning afzalliklari va hunarmandchilik sohasidagi roli tahlil qilinadi.

Mobil ilova (inglizcha: *Mobile app*) — ma’lum bir platforma (iOs, Android, Windows Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Ko‘pgina mobil ilovalar qurilmaning o‘zida oldindan o‘rnatiladi yoki ularni App store, Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin. Dastlab, mobil ilovalar elektron pochtani tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi, masalan, mobil telefon va GPs o‘yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va Internetdan foydalanish. Mobil ilovalar ko'plab turli sohalarda, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, ko'ngilochar sanoat, va boshqa ko'plab sohalarda faoliyat ko'rsatadi. Ular foydalanuvchiga qulaylik yaratish, xizmatlarni tez va samarali olish, o'zaro muloqot qilish va ko'plab boshqa imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mobil ilova turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

1. **O‘qitish va ta’lim:** Ilovalar foydalanuvchilarga darslar, testlar va boshqa o‘quv materiallarini taqdim etadi. Masalan, “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fani bo'yicha mobil ilova o'quvchilarga yoki talabalar uchun interaktiv darslar, videolar, grafikalar, va amaliy mashg'ulotlar taqdim etishi mumkin.

ISSN 3030-3907

2. **Sotuv va savdo:** Ilovalar orqali foydalanuvchilar turli mahsulotlarni sotib olish yoki sotishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligiga oid ilovalar hunarmandlar va san’atkorlar uchun o‘z asarlarini namoyish etish, reklama qilish va sotish imkoniyatlarini yaratadi.

3. **Kommunikatsiya:** Mobil ilovalar foydalanuvchilarga o'zaro aloqalar o'rnatish imkoniyatini beradi. Bu ijtimoiy tarmoqlar, chatlar, forumlar, yoki boshqa platformalar bo'lishi mumkin. Xalq hunarmandchiligiga oid ilovalar esa hunarmandlar va dizaynerlar o'rtasida fikr almashish, maslahatlar berish, o'z ishlarini namoyish etish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

4. **O'quv kurslari va master-klasslar:** Foydalanuvchilar o'z qurilmalarida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash bo'yicha onlayn kurslar, master-klasslar yoki treninglarni ko'rishlari mumkin. Bu ilovalar step-by-step (qadam-baqadam) ko'rsatmalar, darslar yoki video materiallar orqali foydalanuvchilarga an'anaviy hunarmandchilik texnikalarini o'rganishga yordam beradi.

5. **Eksponatlar va ko'rgazmalar:** Mobil ilovalar orqali foydalanuvchilar xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalarga oid ko'rgazmalarga, festivallarga yoki san'at tadbirlariga qo'shilishlari mumkin. Ilovalar onlayn tarzda ko'rgazmalarni taqdim etish va virtual tajriba yaratishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

6. **savdo va marketing:** Xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini internetda sotish va reklama qilish uchun mobil ilovalar ishlab chiqish zarur. Bu yordamida hunarmandlar o'z mahsulotlarini global bozorda taklif qilishlari mumkin.

Mobil ilova ishlab chiqishning asosiy bosqichlari:

1. Tadqiqot va tahlil: Ilova yaratishdan oldin, maqsadli auditoriyani aniqlash va ular uchun qanday funksiyalar kerakligini o‘rganish muhim. Xalq hunarmandchiligi ilovasi uchun, bu foydalanuvchilarni qiziqtiruvchi turli mavzularni, ya'ni hunarmandchilik turlari, texnikalar, tarixi va amaliyotlar kabi masalalarni aniqlashni anglatadi.

2. Dizayn va interfeys: Ilovaning foydalanuvchi interfeysi intuitiv, oson va qulay bo'lishi kerak. Xalq hunarmandchiligi mavzusidagi ilovalar uchun vizual dizayn juda muhim, chunki u foydalanuvchilarga badiiy asarlarni yoki hunarmandchilik mahsulotlarini yaxshi ko'rish imkoniyatini yaratadi.

3. Funktsiyalarni belgilash: Ilovada foydalanuvchilarga kerakli barcha funksiyalarni qo‘shish zarur. Masalan, xalq hunarmandchiligini o‘rgatuvchi video darslar, onlayn savdo, foydalanuvchilar o‘rtasida muloqot va o‘zaro fikr almashish imkoniyatlari, va boshqa funksiyalar.

4. Testlash: Ilova ishlab chiqilganidan so'ng, u barcha mobil qurilmalarda va platformalarda to‘g‘ri ishlashini tekshirish kerak. Bu bosqichda foydalanuvchilarning fikrini olish ham muhim, chunki ular ilovaning qulayligi va samaradorligini sinab ko‘radilar.

ISSN 3030-3907

5. Tarqatish va reklama: Ilovani App store yoki Google Play kabi platformalarda tarqatish orqali foydalanuvchilarga taqdim etish mumkin. shuningdek, ilovani reklama qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish foydalidir.

Xalq hunarmandchiligi asrlar davomida shakllangan va milliy madaniyatimizning muhim qismi hisoblanadi. U o‘ziga xos uslublari, texnologiyalari va bezak elementlari bilan ajralib turadi. Bunday san’at turlariga kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, gilam to‘qish va boshqa ko‘plab hunarmandchilik yo‘nalishlari kiradi.

Badiiy loyihalash esa hunarmandchilik buyumlarini zamonaviy talablar asosida ishlab chiqishga yordam beruvchi jarayon bo‘lib, dizayn, kompozitsiya, rang tanlovi kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy hunarmandchilik mahsulotlari badiiy loyihalash orqali estetik va funksional jihatdan boyitiladi. Shunday ekan, ushbu yo‘nalishlarni o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurati dolzarb masalalardan biridir.

Texnologik ta’limdagi asosiy fanlardan biri “Xalq hunarmandchili va badiiy loyihalash” fani mobil ilovasini ishlab chiqish zarurati ko‘plab jihatlar bilan bog‘liq. Ushbu ilova xalq hunarmandchiligi, uning tarixiy ahamiyati, madaniy merosi va zamonaviy badiiy loyihalarga oid bilimlarni talabalar orasida ommalashtirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. Quyida mobil ilovaning ishlab chiqilishi zaruratining asosiy sabablarini keltirib o‘tamiz:

1. Xalq hunarmandchiligini saqlash va ommalashtirish

Xalq hunarmandchiligi, o‘tmishdagi madaniy an'analar va badiiy meroslar, zamonaviy sharoitda mobil ilova orqali bu san'at turini keng auditoriyaga yetkazish, uning tarixini, texnologiyalarini, san'ati va xususiyatlarini o‘rgatish mumkin. Bu, ayniqsa, yoshlar orasida xalq hunarmandchiligiga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

2. Ta'lim va o‘qitish imkoniyatlari

Mobil ilova, ayniqsa, o‘quvchilar va talabalar uchun xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash sohasida yangi ta'lim manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Ilova ichida interaktiv darslar, videodarslar, maqolalar, rasm va tasvirlar yordamida hunarmandchilikning turli tarmoqlarini o‘rganish mumkin. shuningdek, mobil ilova talaba yoshlarga vaqt va joy tanlamagan holda fanni qulay o‘rganish va bilimlarini sinash imkoniyatini beradi.

3. Yoshlarni xalq hunarmandchiligiga jalb qilish

Bugungi kunda yoshlar ko‘proq mobil texnologiyalarni ishlatadilar va ularning qiziqishlari ko‘pincha onlayn platformalar va ilovalar orqali shakllanadi. “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fani bo‘yicha mobil ilova, aynan yoshlarni bu soha bilan tanishtirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. Interaktiv va o‘rgatuvchi imkoniyatlar,

ISSN 3030-3907

o‘z qo‘li bilan hunarmandchilik ishlari yaratish uchun ko‘rsatmalar, g‘oyalar va maslahatlar taqdim etilishi, yoshlarni san'atga qiziqtirishi mumkin.

4. Yangi texnologiyalarni qo‘llash

Mobil ilova xalq hunarmandchiligini zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, 3D texnologiyalari, Autocad, sun'iy intellekt va shunga o‘xshagan zamonaviy dasturlar yordamida hunarmandchilik mahsulotlari yoki ularning yaratish, ularni virtual tarzda ko‘rish yoki o‘rganish imkoniyati yaratilishi mumkin. Bu, an'anaviy hunarmandchilik bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishni xohlagan foydalanuvchilar uchun muhimdir.

5. Jamiyatda ijtimoiy ahamiyatni oshirish

Xalq hunarmandchiligini va badiiy loyihalarni targ‘ib qilish, nafaqat madaniy merosni saqlash, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham oshirishga yordam beradi. Mobil ilova orqali foydalanuvchilar o‘z xalqining an'analariga hurmat bilan qarab, ularni yosh avlodga yetkazish va xalq hunarmandchiligi sohasida yuksak qadriyatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shishlari mumkin.

Xulosa

Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fani uchun mobil ilova ishlab chiqish bugungi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Bunday ilovalar nafaqat o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi, balki hunarmandchilik sohasining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fani mobil ilovasini ishlab chiqish, nafaqat ushbu sohani targ‘ib qilish, balki uni zamonaviy sharoitda yangilash, ta‘lim va hunarmandchilikni rivojlantirishda muhim qadamdir. Bu ilova orqali xalq hunarmandchiligi yanada ommalashadi, uning yangicha shakllari va ilg‘or texnologiyalari keng auditoriyaga taqdim etiladi, shu bilan birga, talabalarning fanni o‘zlashtirishlarida ahamiyatlidir.

Mobil texnologiyalar yordamida milliy madaniyatimizni targ‘ib qilish, hunarmandchilik mahsulotlarini keng auditoriyaga yetkazish va hunarmandlarning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish mumkin. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda mobil ilova ishlab chiqish istiqbollari keng bo‘lib, uni yaratish va rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axadova Malika Baxromovna. (2024). TEXNOLOGIYA TA’LIMIDA “XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIIY LOYIHALAsH” FANINI O‘QITIsH ZARURATI. *PEDAGOGs*, *56*(2), 71–73.

2. Сайфуллаева Д. TEXNOLOGIK TA’LIM YO‘NALIsHIDA XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIIY LOYIHALAsH FANINI INNOVATsION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB XORIJIY TILDA O‘QITIsH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 25. – №. 25.

ISSN 3030-3907

3. sayfullayeva D. A. et al. Levels of activation the activities of students //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. – 2020. – С. 28-31.
4. sayfullaeva D. I. THE AFFECT OF DIFFERENT EXTERNAL INFORMATION IN THE EDUCATION OF YOUTH AND THEIR PREVENTION.
5. sayfullayeva DA. Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students. GALAXY INTERNATIONAL INTERDIsCIPLINARY REsEARCH JOURNAL (GIIRJ) № 10.2022. B-661-671;.
6. Muminovna R. D. Ta'lim tizimida foydalanishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalari tasnifi //наука и технологии. – 2023-у. – т. 1. – №. 3.
7. Tohirovich R. E. et al. The Importance of Using Graphics Programs in The Design of sewing
Items //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 5-8
8.Quliyeva Sh.H. "Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя" Казанский педагогический журнал, №4. 2010. С. 48-52.
9. Кулиева Ш. Х., М.Каримова, М.Х. Давлаткулова Davlatkulova "Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода" Молодой учёный журнал, №8 (67) июнь, 2014 г. С. 804-807.
10. Кулиева Ш. Х. "Проблемы автоматизации швейного производства" Молодой учёный. Казан, 2016. № 7 (111). - С. 97-99.
11. Кулиева Ш. Х. "Интенсификация процесса проектирования одежды" Молодой учёный. Казан, 2016. № 9 (113). -С. 193-196.
12. Кулиева Ш. Х., З.Д.Расулова "Формирование профессионально-педагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий" Молодой учёный. Казан, 2016. № 8 (112). -С. 977-978.
13. Кулиева Ш. Х., З.Д.Расулова "Инновационная деятельность педагога в образовании" Молодой учёный. Казан, 2016. № 8 (112). - С. 978-980.
14. Кулиева Ш. Х. "Методологические основы системного подхода при подготовке учителей" The Way of Science. № 5 (39) ,2017. - С.66-67

ISSN 3030-3907